

RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI

Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

E-mail: allasugirovnurmuxammed@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ining o‘shish dinamikasi, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish samaradorligi hamda tarmoqning iqtisodiy asoslari tahlil qilingan. 2015–2024-yillar statistik ma’lumotlari asosida ishlab chiqarish hajmi, energiya sarfi va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, energiya sarfining 15 foizga kamayishi hamda qayta ishlangan xomashyo ulushining ortishi ishlab chiqarish tannarxini pasaytirib, korxonalar foydasini oshirgan.

Kalit so‘zlar: resurs tejamkorlik, qurilish materiallari, samaradorlik, energiya tejash, iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik.

Аннотация

В статье проанализированы экономические основы и эффективность развития отрасли производства строительных материалов в Узбекистане с применением ресурсосберегающих технологий. На основе данных за 2015–2024 годы выявлены тенденции роста производства, снижения энергоёмкости и повышения производительности труда. Результаты показали, что сокращение энергопотребления на 15% и увеличение доли переработанного сырья способствует снижению себестоимости и повышению прибыли предприятий.

Ключевые слова: ресурсосбережение, строительные материалы, эффективность, энергосбережение, экономическое развитие, устойчивость.

Abstract

The article analyzes the economic foundations and efficiency of the construction materials industry in Uzbekistan with an emphasis on resource-saving technologies. Based on 2015–2024 data, the study identifies trends in production growth, reduced energy consumption, and increased labor productivity. The findings indicate that a 15% reduction in energy use and a rise in recycled raw materials contribute to lower production costs and higher profitability for enterprises.

Keywords: resource efficiency, construction materials, productivity, energy saving, economic development, sustainability.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotida qurilish tarmog‘i strategik soha hisoblanadi. Mamlakatda so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining yuqori bo‘lishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi va aholining turmush darajasining oshishi natijasida qurilish materiallariga talab keskin ortib bormoqda. Shu bilan birga, xomashyo va energiya resurslarining cheklanganligi, ishlab chiqarish tannarxining ortib borishi sharoitida resurs tejamkorlik masalasi tarmoq barqarorligini

ta'minlashning asosiy omiliga aylanmoqda. Ushbu sharoitda resurs tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarishni iqtisodiy asosda tashkil etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va tarmoq samaradorligini oshirish zaruriyati kuchaymoqda. Tadqiqotning maqsadi — resurs tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslarini tahlil qilish, tarmoq rivojlanishining samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash hamda barqaror o'sish uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Zayniddin K. va Maxmudovich T.O. tadqiqotlarida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda bozor mexanizmlarining o'rni, ayniqsa resurslardan oqilona foydalanish va modernizatsiya jarayonlarini joriy etish omillari ilmiy asoslangan. Mualliflar iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilib, ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'lanishni statistik jihatdan tasdiqlaganlar [6].

Baxtiyarovich U.I. o'z izlanishlarida sirkulyar iqtisodiyot modellarini qurilish materiallari sanoatida qo'llashning ahamiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, qayta ishlash, chiqindilarni ikkinchi resurs sifatida foydalanish va "yalanma iqtisodiyot"ga o'tish tarmoq barqarorligi hamda ekologik samaradorlikni ta'minlaydi. Shu jihatdan mazkur ish barqaror ishlab chiqarish strategiyalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [7].

Abdumutalibovich D.S. tomonidan qurilish materiallari sanoatidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga oid ilmiy yondashuvlar taklif etilgan. Muallif korporativ tizimda nazorat, hisobdorlik va qaror qabul qilish jarayonlarini aniqlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash modelini ishlab chiqqan. Bu ish sanoatdagi boshqaruv tizimini institutsional jihatdan takomillashtirishga yo'naltirilgan [8].

Shuxratovna M.K. tomonidan qurilish-sanoat korxonalarida mahsulot turlarini diversifikatsiya qilishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda mahsulot portfelini kengaytirish orqali bozorda raqobatbardoshlik va foyda hajmini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Bu yondashuv iqtisodiy samaradorlikning muhim rezerv manbai sifatida baholangan [9].

Djalalova G. va Mirsodiqov A. tadqiqotlarida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ta'minot zaxiralari barqarorligini ta'minlashda marketingning o'rni yoritilgan. Ular ta'minot zanjirida talabni prognozlash, logistika samaradorligini oshirish va mijozlar bilan uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish iqtisodiy natijalarni yaxshilashini ko'rsatganlar [10].

Odilxo'jayev A.E.ning asari tarmoqning nazariy va amaliy asoslarini qamrab olgan bo'lib, mahalliy xomashyo bazasi, mahsulot turlari va ularning iqtisodiy tahlilini o'z ichiga oladi. Uning ishlari tarmoq rivojining klassik asoslarini belgilaydi va keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy baza sifatida xizmat qiladi [11].

Turg'unovich Y.G. va Fazliddin o'g'li N.Y. sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar va tashkilotlar faolligining ta'sirini tahlil qilgan. Ular investitsiya faolligining hududiy tengsizliklari hamda

sarmoya samaradorligini baholash orqali tarmoqdagi o‘shish drayverlarini aniqlaganlar [12].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish kompleks yondashuvni talab etadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslama dinamik usullar va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash formulalariga asoslanadi. Tizimli yondashuv asosida qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog‘ining barcha tarkibiy elementlari — xomashyo bazasi, ishlab chiqarish texnologiyalari, energiya sarfi, mehnat resurslari va yakuniy mahsulot qiymati — o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganildi.

Tadqiqotda foydalanilgan dastlabki ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda 2015–2024-yillar davrida qurilish sanoatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan olingan. Ushbu ma‘lumotlar asosida milliy iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari, qurilish ishlari hajmi, aholi daromadlari va bandlik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, statistik tahlil, taqqoslama dinamik usullar, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shish koeffitsiyentlarini hisoblash hamda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash formulalariga asoslangan. Tadqiqot ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda 2015–2024-yillar davrida qurilish sanoatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan olingan (1-jadval) [2].

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘shish va qurilish tarmog‘i ko‘rsatkichlari (2015–2024-yillar)¹

Ko‘rsatkichlar	2015	2018	2020	2022	2024	O‘rtacha o‘shish koeffitsiyenti
YAIM (mlrd so‘mda)	227761,6	376269,8	603956,2	869779,8	1283346	1,21
Qurilish ishlari hajmi (mlrd so‘mda)	25423,1	51129,3	88130,3	130790,9	263679,2	1,30
Sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd so‘mda)	97598,2	235340,7	368740,2	553265	880198,5	1,27
Aholining umumiy daromadlari (mlrd so‘mda)	169344,3	300842,7	420338,3	533792,1	591151,6	1,15
Qurilishda bandlar soni (ming kishi)	1222,2	1205,5	1305,6	1314,3	1360,1	1,02

¹O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015–2024-yillar oralig'ida qurilish ishlari hajmining o'rtacha o'sish koeffitsiyenti 1,30 ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich YAIM (1,21) va sanoat ishlab chiqarish (1,27) ko'rsatkichlaridan yuqori. Ushbu holat tarmoqning umumiy iqtisodiy o'sishdagi yetakchi o'rnini tasdiqlaydi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining keskin o'sishiga modernizatsiya jarayonlari, mahalliy xomashyo bazasining kengayishi hamda energiya tejoyvchi texnologiyalarni qo'llash asosiy turtki bo'lgan.

Resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish tannarxi kamayib, mehnat unumdorligi oshgani kuzatilmoqda. Misol uchun, 2020-yilda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida har bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi 3,5 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 4,7 ming tonnaga yetgan. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi 34 foizga oshganini ko'rsatadi (2-jadval) [3].

2-jadval.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida resurs tejamkorlik ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar)¹

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	O'zgarish (%)
Energiya sarfi (kVt/tonna)	128	120	115	111	108	-15,6
Tannarxdagi energiya ulushi (%)	18,5	17,2	16,4	15,7	15,1	-3,4
Qayta ishlangan xomashyo ulushi (%)	22	25	28	31	34	+12
Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'mda)	88130,3	107492,7	130790,9	202819,2	263679,2	+198,9

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, energiya sarfining 15–16 foizga kamayishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi pasaygan, qayta ishlangan xomashyo ulushining oshishi esa resurslardan samarali foydalanish darajasini yuksaltirgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmining 200 foizga yaqin o'sishi tarmoqda investitsion faollik ortganini bildiradi. Bu holat energetik tejamkorlik bilan bir qatorda iqtisodiy barqarorlikning ham mustahkamlanishiga sabab bo'lgan [2].

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, resurs tejamkor texnologiyalar joriy etilgan korxonalarda energiya tejalishi va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasida bevosita ijobiy bog'liqlik mavjud. Korxonalar tomonidan yangi issiqlik almashinish tizimlari, chiqindi gazlarni qayta ishlash texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi 5–7 foizga kamaygan, foyda esa 10–12 foizga oshgan [4].

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, resurs tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish nafaqat iqtisodiy foyda beradi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Bu yo'nalishda hukumat tomonidan ishlab chiqilgan "Yashil iqtisodiyot strategiyasi" asosida korxonalarda energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, resurs tejamkorlikni 10 foizga oshirish ishlab chiqarish tannarxini o'rtacha 6 foizga kamaytiradi, bu esa o'z navbatida foyda hajmini 4–5 foizga oshirish imkonini beradi [5].

Xulosa qilib aytganda, resurs tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoq barqarorligini ta'minlashda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hamda iqtisodiyotning ekologik xavfsizligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishdagi muvaffaqiyatli natijalar xomashyo bazasining boyligi, ishlab chiqarishning modernizatsiya qilinishi va ilmiy tadqiqotlar bilan amaliyotning integratsiyalashuvi bilan bog'liq. Kelgusida resurs va energiya tejamkor texnologiyalarni yanada keng joriy etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali tarmoqning iqtisodiy samaradorligi yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2015–2024-yillar). Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. (2023). Qurilish tarmog'ida modernizatsiya va energiya samaradorligi dasturi bo'yicha hisobot. Toshkent.
3. Ахмедов И.Р. (2022). Ресурсосберегающие технологии в строительной промышленности Узбекистана. Журнал «Экономика и инновации», №4, с. 45–52.
4. Karimov B.A. (2023). Resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. Toshkent: TDIU nashriyoti.
5. UNECE. (2022). Resource Efficiency and Green Construction in Central Asia. Geneva: United Nations Economic Commission for Europe.
6. Zayniddin K., Maxmudovich T. O. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari //Theory and analytical aspects of recent research. – 2024. – T. 3. – №. 29. – С. 217-220.
7. Baxtiyarovoch U. I. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida sirkulyar iqtisodiyot modellarini shakllantirish ahamiyati / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 4. – С. 572-577.
8. Abdumutalibovich D. S. Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish //qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – С. 29-34.

9. Shuxratovna M. K. Qurilish–sanoat korxonalarida mahsulotni diversifikatsiya qilishning ahamiyati va o‘rni //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 06. – C. 217-222.

10. Djalalova G., Mirsodiqov A. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining ta’minot zaxiralari barqarorligini ta’minlashda marketingning o‘rni //American Journal of education and learning. – 2025. – T. 3. – №. 5. – C. 720-725.

11. Odilxo‘jayev A. E. Qurilish materiallari //Toshkent, “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot matbaa birlashmasi. – 2020. – T. 256.

12. Turg‘unovich Y. G., Fazliddin o‘g‘li N. Y. sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishiga korxonalar va tashkilotlarning hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning ta’siri (hududlar kesimida) //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – T. 5. – №. 02. – C. 1-7.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**